
O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qo'shtepa tuman Kengashi hamda "Yoshlar - kelajagimiz" jamg'armasi bilan hamkorlikda "Men volontyorman" taqdimot loyihasi o'tkazildi

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qo'shtepa tuman Kengashi hamda **"Yoshlar - kelajagimiz"** jamg'armasi bilan hamkorlikda 20 nafar maktab va 24 nafar kasb - hunar kolleji o'quvchilari o'rtasida **"Men volontyorman"** taqdimot loyihasi o'tkazildi. Loyiha taqdimoti davomida yoshlarga volontyorlik yo'nalishlari, vazifalari, volontyorlarga berilgan imtiyozlar va kimlar volontyorlikka a'zo etilishi bo'yicha o'quv seminari bo'lib o'tdi. Taqdimot tadbirida ishtirok etgan 35 nafar yoshlar volontyor bo'lish istagini bildirishdi va ularning ro'yxatlari shakllantirildi.















Shohrux Rahmonberdiyev,

O'zbekiston yoshlar ittifoqi tuman Kengashi bosh mutaxassisi

2019-09-27 16:48:49